

O'ZBEKISTON YOSHLARIDA INSONPARVARLIK XISLATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA ROLI

Kulaxmetov Abdusattor Baxriddinovich,

*IIV 1-sonli Toshkent Akademik litseyi, Huquqiy va ijtimoiy gumanitar fanlar
kafedrasi bosh o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent*

Eshov Namoz Sanoqulovich

*IIV 1-sonli Toshkent Akademik litseyi Huquqiy va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi
yetakchi o'qituvchisi*

*Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot -
yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.*

A.Avloniy.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimda sifat jihatdan salmoqli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy islohotlar natijasida jamiyatning tubdan yangilanishi, qayta qurilishi uchun muhim sharoit yaratildi, jumladan, ta'limgarbiya sohasida ham keng islohotlar o'tkazish imkoniyatlari vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'limgarbiya tizimining ijobjiy tajribalari va yutuqlariga diqqat-e'tibor kuchaydi. Har qanday davrda ham yosh avlodni barkamol, komil va jamiyatda o'z o'rni ega shaxs qilib tarbiyalash eng asosiy maqsad bo'lib kelgan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'limgarbiya tizimining ijobjiy tajribalari va yutuqlariga diqqat-e'tibor kuchaydi. Har qanday davrda ham yosh avlodni barkamol, komil va jamiyatda o'z o'rni ega shaxs qilib tarbiyalash eng asosiy maqsad bo'lib kelgan.

Ta'limgarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari o'z navbatida ta'limgarbiya tizimini demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurishni taqozo etadi. Chunki insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy va ma'naviy farovonligini, mustaqil ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliqi kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, odoblilik, vatanparvarlik, vijdonlik, iymon-e'tiqodlilik, kamtarlik, mehmono'stlik, tinchliksevarlik, oliyjanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga nisbatan qo‘yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta’lim islohotlarining natijasini belgilab beradi. O‘z navbatida mazkur hujjatda shaxsning ijodkorligi va intellektual qobiliyatlari barkamollikning asosiy belgilari sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqadigan asosiy vazifa – ta’lim tizimida shaxsda ijodkorlik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish orqali uning barkamolligiga erishishdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yoshlarda insonparvarlik xislatlarini shakllantirishga katta e’tibor qaratila boshlandi va bu siyosat hukumat tomonidan muntazam nazoratda bo‘lib kelmoqda.

“Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturida ham bolalar hamda yoshlarni uyg‘un kamol toptirish;

- o‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasida yaratilgan zamonaviy moddiy-texnika bazasidan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash;

- o‘quv jarayonida yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedya vositalarini keng joriy etish, ta’lim muassasalarining o‘quv-laboratoriya bazasini mustahkamlash, o‘qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirishning samarali tizimini shakllantirish hisobiga maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda, olyi ta’lim muassasalarida ta’lim berish sifatini tubdan yaxshilash;

- yoshlarni muntazam ravishda sport bilan shug‘ullanishga jalb etishni kuchaytirish;

- yosh avlodni muntazam ravishda xorijiy tillarni o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullanishga qiziqtirib borish;

- ilm-fanni yanada rivojlantirish,iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish uchun sharoitlar yaratib berish, ular tomonidan o‘zlarining ijobiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish;

- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan yot g‘oyalardan, tuban “ommaviy madaniyat”ning turli illatlari xavfi va zarari ta’sirlaridan himoya qilish kabi muhim masalalar o‘rin olgan edi. Shu sababli barkamol avlod tarbiyasining mazmun mohiyati, maqsad-vazifalari, yo‘nalishlari, tarbiya jarayonlarining uzviy bog‘liqligi, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarni ma’naviy axloqiy tarbiyalash usullari va xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o‘rganish hamda bo‘lajak pedagogik faoliyatda ushbu bilimlardan keng ko‘lamda foydalanish, tajribalarni amaliyotga faol tatbiq etishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi sohasida xususan ularda insonparvarlik xislatlarini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati

respublika qonunlari, Prezident va hukumat qarorlarida o‘z aksini topmoqda. Jumladan, 2016-yil 14-sentabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

2018-yil 23-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi.

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi Konstitutsiyaning 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishlarini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishiga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb belgilab qo‘yilgan.

Barkamol inson – bu o‘zida ma’naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatlarini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak iste’dodli va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan ma’naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, jismonan sog‘lom, hayot go‘zalliklarini to‘la his eta oladigan ijodkor shaxs.

Ta’limni insonparvarlashtirish deganda, yosh avlodda boy estetik hissiyot, yuksak ma’naviya, madaniy va ijodiy tafakkurni shakllantirish va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning ustivor yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan ta’lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda, ta’lim oluvchida mustaqil shaxsni tarbiyalash, unda bilim olish madaniyatini shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash hamda shaxsiy g‘urur, ishonch kabi xislatlarni shakllantirishga alohida e’tibor berlishi kerak.

Yoshlarda insonparavarlik fazilatlari, eng avvalo, ularning o‘zidan katta yoshdagи insonlar – ota-ona, yaqinlari, o‘qituvchi-pedagoglar, va boshqalar bilan bo‘lgan kundalik munosabatlari orqali shakllanib, so‘ngra tengqurlari bilan munosabatlarda takomillashib boradi. Shu ma’noda insonparvarlik shaxs ta’rifi va tavsifining bosh mezoni sifatida, uning shaxs ruhiyatida vujudga kelish, shakllanish va taraqqiy etish jarayonlari va qonuniyatlarini o‘rganish yoshlarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda, ularni har tomonlama uyg‘un taraqqiy etishlarini ta’minalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo‘yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo‘lib, bo‘lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustuvor bo‘lishini ta’minalashga qaratiladi. Tarbiyaviy ishlar rejali va gumanitar turkumdagi fanlarning, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish bilan birga, bu turkumga kirmagan boshqa

fanlar, shuningdek huquqiy fanlar va umuman ta’lim tizimida o’tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma’naviy-axloqiy va ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi.

O‘quv dasturlarining, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta’limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o‘quv dasturlari tayyorlashda ta’limni insonparvarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya’ni yosh mutaxassislarning ma’naviy axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishida va takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta’minalashga katta e’tibor berilishi zarur.

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta’lim sohalarida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur’atlari tobora jadallahshmoqda. Birov axborotlar asri talablariga muvofiq o‘zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari davlat va jamiyat oldiga yangi-yangi vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Shaxsning ma’naviy, ruhiy kamoloti ta’minalmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama rivojlangan bo‘ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlari qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, nafaqat yoshlarning, balki umuman olganda millatning ruhiy-ma’naviy rostlanishiga yordam berishi kerak.

Barkamol shaxsni tarbiyalash huquqiy ta’lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida yoshlari ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy nuqtai nazarning mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligini o‘sishi va ixtisoslik bilimlari hamda kasbiy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan asrlar davomida to‘plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo‘lish, ularni imkoniyat darajasida o‘zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, or-nomus, vijdon, sha’n, or-nomus, mardlik, jasorat, fidoiylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday ijobiy sifat va fazilatlarni tarbiyalash o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Shu bois yoshlarni respublikamizning tarixiy shaharlariga, muzeylarga va boshqa diqqatga sazovor joylariga muntazam sayohatlar uyushtirib turish, teatrlarga, muzeylarga, ko‘rgazmalarga, konsertlarga olib borish, shuning bilan birga ta’lim muassasalarida ularni mehnat va urush faxriylari, zamonamiz qahramonlari, shoir-yozuvchilar, san’atkorlar, huquq-tartibot idoralarining mas’ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, keksa avlod bilan davra suhbatlari hamda uchrashuvlar tashkil etish lozim. Bularning barchasi yoshlarmizda milliy iftixon, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga va boyitishga yordam beradi.

O‘rta maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchi va talabalarning qiziqishlari bo‘yicha tashkil etilgan turli xil to‘garaklar, sport seksiyalari yoshlarning kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardandir.

Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o‘qituvchilarning murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta’sir tizimini qabul qilishga oid tayyorgarlik darajasiga tashxis qo‘yishdan iborat.

Davlat va jamiyatimiz oldida turgan hozirgi maqsadlar bilan boshlanuvchi ijtimoiy pedagogik buyurtmadan kelib chiqqan holda, uzlucksiz tarbiya tizimi mazmuniga quyidagi asosiy yo‘nalishlar kiritiladi: vatanparvarlik tarbiyasi, mafkuraviy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy-gigienik tarbiya, kasbiy tarbiya, oilaviy tarbiya, milliy g‘urur tarbiyasi, huquqiy tarbiya, diniy bag‘rikenlik tarbiyasi, baynalminal tarbiya, intellektual tarbiya, mehnat tarbiyasi va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Besh tashabbus yosh avlod ongiga zamonaviylik ruhini singdirish, ularni yaratuvchanlikning yangidan-yangi yo‘nalishlariga boshlashda asosiy omil vazifasini bajaradi. Yoshlar – kelajagimizning davomchilaridir. Ularga bugungi kunda berilgan e’tibor, davlatimiz va xalqimizning kelajagiga berilgan e’tibordir.

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxs tarbiyasi-shaxsni ma’naviy- axloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuasidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi esa davlat va jamiyatga sidqidildan, vijdonan xizmat qiluvchi, Vatanga fidoyi, axloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi. 30-aprel 2023-y. (<http://lex.uz>)
2. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi. 27-iyun 2018-y. (<http://lex.uz>)
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. G‘aniyeva M. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qitish texnologiyalari to‘plami. – T., TDIU, Iqtisodiyot. 2013.
5. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 25-fevral 2021-y. (<http://lex.uz>)